



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING QARORI

20 22 y. "27" sentabr

№ 33

Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflar) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9- moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi “O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4796-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, iste'mol narxlari statistikasi sohasini xalqaro amaliyot va tajribalar asosida yanada takomillashtirish maqsadida, Davlat statistika qo'mitasi **QAROR QILADI:**

1. Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflar) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat statistika qo'mitasining 2020- yil 30- noyabrdagi “Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflar) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida”gi 46-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Ushbu qaror 2023- yil 1- yanvardan kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov